

МУҒАЛЛИМ ҲАМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ



Илимий-методикалық журнал

2024

1-сан

*Ўзбекистан Республикасы Министрлер Кабинети жанындагы
Жоқаргы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүўалық берилген.*

Adasheva M.U. Elektron o‘quv adabiyotlarni yaratish metodikasi	369
Абдуллаев Б.Б., Жанбоев Ш.М. Практические проекты по обработке графической информации	375

БАСЛАЎҒИШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Abdulfattoyeva G.Q. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashlari asosida kreativ sifatlarini shakllantirishda oila va talim muassasalarining o‘rni	382
Saydaliyeva L.M. Boshlang‘ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishni tashkil etish	389
Jabborova O.M., Saparbaeva D.T. Boshlang‘ich ta‘lim metodikasiga yangicha yondashuvlar	393
Jamoliddinova D.M., To‘xtaboyeva M.R. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish	397
Djurayev I.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirishda mnemotexnologiyalardan foydalanish	402
Akmaldinova F.I. Ona tili darslarida noan‘anaviy ta‘lim metodlarini joriy etish orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	406
Abdulfattoyeva G.Q. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining mustaqil fikrlashlari asosida kreativ sifatlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning o‘rni	412
Toshmatova O‘.R. Boshlang‘ich sinflarda matematika fanidan to‘garak mashg‘ulotlarida mantiqiy masalalar yechish usullari	416
Umarov N.I. Boshlang‘ich ta‘limda kvest texnologiyasi	420

ТАСВИРИЙ САЪНАТ

Talipov N.X. Bo‘lajak tasviriy san‘at o‘qituvchilarini ranglavhalar ishlashga o‘rgatishning kreativ texnologiyalari	426
Zaripov O.K. Integrativ yondashuv asosida kompyuter grafikasi va Web – dizayn fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish	433

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ХЭМ СПОРТ

Maxammadiyev M.M. Badmintonchilarni tayyorlashning boshlang‘ich bosqichida koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari	438
Raxmonov A.A. Yosh sportchilarni tarbiyalash va huquqiy himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish pedagogik muammo	445
Юлдиев Н. Ж. ИИВ академия курсантларини кутқарув ишларига ўргатишнинг интерфаол усуллари	450
Mirzaxalilov A.X. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari orqali harbiylashtirilgan ta‘lim muassasasi kursantlarining jangovor tayyorgarlik kompetentligini rivojlantirish pedagogik muammo	456
Berdiyev B.Ch. Bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida milliy kurash vositasida sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirish pedagogik muammo	462
Мухаммадиев К.Б. Экспериментальная проверка эффективности подготовки высококвалифицированных спортсменов с техниками премов по курашу	468
Radjapov M.A., Nurullaev S.Z. Improvement of technical actions of sambo wrestlers at the initial preparation stage	475
Musaeв B.B. Main directions of personal development and the role of physical education in the formation process	482
Baituraev E.I. Expanding the specialized and strategic preparing of youthful sambo wrestlers, taking into consideration energetic circumstances of competitive action	490



BOSHLANG‘ICH TA‘LIM METODIKASIGA YANGICHA YONDASHUVLAR

Jabborova O.M.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasi mudiri (PhD), dotsent

Saparbaeva D.T.

Boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi

Таянч сўзлар: boshlang‘ich ta‘lim, metodikaga yondashuv, yangicha munosabat, tajriba va malaka.

Ключевые слова: начальное образование, методический подход, новый подход, опыт и компетентность.

Key words: primary education, methodological approach, new approach, experience and competence.

“O‘zbekiston-2023” strategiyasida mamlakatimizda 2026 yilga qadar boshlang‘ich ta‘limda sifat ko‘rsatkichlariga erishish vazifalari qo‘yilgan [1]. Shu jihatdan boshlang‘ich ta‘lim muammolari bo‘yicha ilmiy, nazariy, metodik va amaliy tadqiqotlar majmuini yaratish taqozo etiladi. Bu o‘rinda e‘tiboringizni boshlang‘ich ta‘lim metodikasiga doir yangicha yondashuvlar masalasi tahliliga tortamiz.

Boshlang‘ich ta‘lim mazmunining takomillashuvi. Mamlakatimizda keyingi besh yil davomida xorijiy mamlakatlar tajribalari va xalqaro ta‘lim dasturlari qoidalari asosida boshlang‘ich ta‘lim jarayonini tashkil etish vazifalari amalga oshirilmoqda. Bunda ayniqsa, yangidan ishlab chiqilgan o‘quv reja va dasturlarda boshlang‘ich ta‘lim mazmunini yangilash va takomillashtirish o‘z ifodasini topgan. Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirish boshlang‘ich ta‘limning asosiy vazifasi sifatida belgilanadi.

- 1) o‘quvchilarning layoqatini rivojlantirish;
- 2) o‘quvchilarda mustaqil fikrlash ko‘nikmasini shakllantirish;
- 3) o‘quvchilarda ijodkorlik ko‘nikmasini shakllantirish;



4) о‘quvchilarda jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmasini shakllantirish[2].

Shu sababli boshlang‘ich ta‘limning o‘quv fanlari aniq, tabiiy va gumanitar fanlar turkumlariga bo‘lib o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Buning natijasida yangi avlod darsliklari yaratilib, amaliyotga joriy etildi. Ayni paytda, gumanitar o‘quv fanlari bo‘yicha milliy qadriyatlarga asoslanish va milliylik ruhini saqlash saqlanib qolganligini eslatib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich ta‘lim mazmunidagi bunday o‘zgarish uning metodikasi nazariyasiga ham yangicha yondashuvlarni taqozo etmoqda. Misol uchun, bugungi kunga qadar boshlang‘ich ta‘lim jarayonida nazariyadan amaliyotga tamoyiliga asoslanilar edi. Yangi avlod darsliklarida esa amaliyotdan nazariyaga tamoyili o‘z ifodasini topgan. Shu sababli boshlang‘ich ta‘lim metodikasining nazariy masalalarini tahlil qilish zaruriyat bo‘lib turibdi. Bunda asosiy e‘tibor boshlang‘ich ta‘lim mazmunini aniqlashtirish va uni takomillashtirish asoslarini ishlab chiqilishiga qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta‘lim vazifalarining takomillashuvi. Bundan besh yil muqaddam mamlakatimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari umumiy o‘rta ta‘limga tayyorlanar edi. Bugungi kunda esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini quyidagi ta‘lim bosqichlari va turlariga tayyorlash yangi vazifasi paydo bo‘ldi:

- 1) umumiy o‘rta ta‘lim bosqichiga tayyorlash;
- 2) Prezident maktablariga tayyorlash;
- 3) ixtisoslashtirilgan ta‘lim muassasalariga tayyorlash.

Bu yangi vazifa boshlang‘ich ta‘limning asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini qanday asoslarga ko‘ra ta‘lim bosqichlari va turlariga tayyorlash metodikasini ishlab chiqish dolzarb bo‘lib turibdi. Shu jihatdan bizning yondashuvimizga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari quyidagilarga asosan ta‘limning keyingi bosqichi va turlariga tayyorlanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

a) ta‘limiy jihatdan tayyorlash, ya‘ni o‘quvchilarni bilim olamiga olib kirish va ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish;

b) tarbiyaviy jihatdan tayyorlash, ya‘ni o‘quvchilarning axloqiy ongi, fazilatlarini va o‘zgaralariga munosabatlarini rivojlantirish;

v) amaliy jihatdan tayyorlash, ya‘ni o‘quvchilarda ijodkorlik, mustaqil qaror qabul qilish va jamoa bo‘lib ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Bunday yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ta‘limning keyingi bosqichi va turlariga tayyorlash bo‘yicha yangi metodikani beradi. Buning natijasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tayyorlash asoslari kuchayadi, uning nazariy va metodik masalalari tarkib topadi. Shu sababli mazkur masalalar bo‘yicha oliy pedagogik ta‘lim muassasalarida ilmiy, nazariy,



fundamental va amaliy tadqiqotlar majmuini yartish dolzarb bo‘lib turibdi. Bu borada “Talabalar Akademiyasi” tuzilmasi imkoniyatlaridan foydalangan holda iqtidorli talabalarni ham ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki har bir talaba oliy pedagogik ta‘lim muassasalarining professor-o‘qituvchilariga birlashtirilganligini eslatib o‘tish joiz.

Boshlang‘ich ta‘lim o‘quv adabiyotlaritahlili. Bugungikundamamlakatimizda boshlang‘ich ta‘lim jarayonida 2023-2024 o‘quv yilidan boshlab aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha yangi avlod darsliklari amalga joriy etilmoqda. Mazkur dasturlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularda PISA, TIMSS kabi xalqaro ta‘lim dasturlarining qoidalari va talablari o‘z ifodasini topgan. Ayni paytda, mazkur turkumdagi darsliklarning o‘quv materiallarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, matn ifodasi juda murakkab. Misol uchun 1-sinf uchun mo‘ljallangan Matematika o‘quv fani darsligining matnlari juda murakab ifodalangan va ko‘pgina misollar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos kelmasligi namoyon bo‘ladi. Shu sababli boshlang‘ich ta‘lim o‘quv adabiyotlarini taxrir qilish, ularda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining imkoniyatlarini hisobga olgan holda materiallarini joylashtirish va O‘qituvchi kitobiga boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun har bir mavzu bo‘yicha metodik tavsiyalarni berib borish taqozo etiladi. Bu hol boshlang‘ich ta‘lim metodikasining o‘quv adabiyotlariga qo‘yiladigan yondashuvlarini ko‘rib chiqish dolzarb ekanligini ko‘rsatadi.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, yangi avlod darsliklarini tayyorlashda quyidagilarga asoslanish murakkablik va matn ifodasidagi qiyinchiliklarni bartaraf etadi:

1) tayyorlangan yangi avlod darsliklarini jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazish;

2) yangi avlod darsliklari tahririga amaliy faoliyatdagi o‘qituvchilarni jalb etish va nashr etishda ularning taqriziga tayanish;

3) tayyorlangan yangi avlod darsliklarini kamida ikki yil davomida tajribasinovdan o‘tkazish;

4) tayyorlanadigan yangi avlod darsliklarida milliy qadriyatlarimizning aks etishini ta‘minlash;

5) yangi avlod darsliklarida xalqimizga xos bo‘lgan mentalitetni ifodalash;

6) yangi avlod darsliklarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xususiyatlariga qat‘iy amal qilish;

7) yangi avlod darsliklarining elektron nus‘halarini birgalikda joriy etish;

8) yangi avlod darsliklarini tayyorlashda oliy pedagogik ta‘lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va o‘quv adabiyotlari mualliflarining hamkorligini yo‘lga qo‘yish.



Bunday yondashuv yangi alod darsliklarining metodikasini nazariy jihatdan takomillashtiradi.

Kezi kelganda shuni ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mualliflar orasida "xorij tajribasi" tushunchasi ko'p ishlatiladi va xorij tajribasi mutloq haqiqat sifatida qabul qilinayotganligi ham mavjud. Aslida har bir mamlakat o'z xalqining milliy xususiyatlaridan kelib chiqib boshlang'ich ta'limni tashkil qilgan va yillar davomida o'quv adabiyotlarini takomillshtirib borgan. Shu sababli xorijiy mamlakatlarning o'quv adabiyotlari bo'yicha tajribalari yuz foiz darajada qabul qilinmasligi kerak. Aksincha, ularning darslik tayyorlash va darsliklarni tajriba-sinovdan o'tkazish tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

E'tibor berilsa, mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim metodikasiga doir yangicha yondashuvlar tarkib topib bormoqda. Bularning barchasi ta'kidlangan muammolarni ilmiy jihatdan hal etishni taqozo qiladi.

Kuzatishlarimizda ma'lum bo'lishicha, har bir davrda boshlang'ich ta'lim metodikasining nazariy masalalari bo'yicha o'zgarish yoki takomillashish mavjud bo'lgan. Pedagog olimlar esa mavjud muammolarni hal etish bilan mazkur masalalarni tartibga solib borgan. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi boshlang'ich ta'lim metodikasida bo'layotgan o'zgarishlar va takomillashishlarni muvofiqlashtirib borishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shunday qilib mamlakatimiz boshlang'ich ta'lim metodikasining nazariy masalalarida yangilanish, takomillashish va yangicha yondashuvlar jarayoni kechmoqda. Bu masalalarni ilmiy va amaliy jihatdan kuzatib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. "O'zbekiston-2030" strategiyasi. // www.ziyounet.uz
2. Bordovskaya N., Rean A. Pedagogika. –Sankt-peterburg, 2001
3. Jabborova O., Umarova Z. Boshlang'ich ta'lim diagnostikasi. – Toshkent, 2023

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim metodikasiga yangicha yondashuvlar masalasi tahlil etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье анализируется вопрос о новых подходах к методике начального образования.

SUMMARY

This article analyzes the issue of new approaches to the methodology of primary education.